

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN TIKUVCHILIK TEXNOLOGIYASI VA JIHOZLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Tikuvchilik texnologiyasi va jihozlari fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Tikuvchilik texnologiyasi va jihozlari

1. Tikuvchilik jihozlari;
2. Tikuvchilik materialshunosligi;
3. Tikuv buyumlarini tikish texnologiyasi;
4. Bolalar kiyimini konstruktsiyalash va modellashtirish;
5. Bolalar kiyimini tikish texnologiyasi;
6. Ayollar kiyimini konstruktsiyalash va modellashtirish;
7. Ayollar kiyimini tikish texnologiyasi

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Tikuvchilik jihozlari.	Tikuv mashinasining yaratilish tarixi va vazifalariga ko'ra turlarini, Universal va maxsus tikuv mashinalaridan ipni to'g'ri o'tkazish, yuqori va pastki iplarning tarangligini sozlash, mashina ignalarini to'g'ri o'rnatish kichik mexanizatsiya moslamalarini o'rnatish, tikuv mashinasi nosozliklarini bartaraf etish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	7.5 %	3 ta
2	Tikuvchilik materialshunosligi.	Gazlamalarni sinflarga bo'linishi, tolalarni olinishi, xossalari, gazlamalarning to'qilishi, ularni pardoqlash, sifatini aniqlaydi. Noto'qima materiallari, issiqlikni tutuvchi noto'qima materiallar, furnituralar turlari va texnologiya xossalari tahlil qilish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	25 %	10 ta
3	Tikuv buyumlarini tikish texnologiyasi.	Tikuvchilik korxonasining bosh vazifasi assortimenti va mavsumbopligi, bichimi, estetik ko'rinishi, sifati jihatdan aholi talablariga mos keladigan kiyimlarni ishlab chiqarishni, texnik me'yoriy hujjatlarni, tikuv va tikuv-trikotaj korxonasidagi bajariladigan ishlar va ularning bosqichlarini, baxya qatorlarni sifatini bildiradigan belgilarini bilish, detallar va uzellarga namlab-issiqlik ishlov berish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	27.5 %	11 ta
4	Bolalar kiyimini konstruksiyalash va modellashtirish.	Bolalarning gavda tuzilish turlari va mutanosib nisbatlarini, bolalar gavdasining antropometrik nuqtalari, o'lchov turlari, konstruksiyalashda qo'llaniladigan qo'shimcha turlari, turli metodikalarda konstruksiya chizmalarini chizish qoidalari va usullarini bajarishni, bolalar kiyimini konstruksiyalash va modellashtirishning asosiy qoidalari va usullarini, bolalar kiyimni dekorativ bezaklar bilan modellashtirish prinsiplari, bolalar kiyimi andozalarni ishlab chiqish xususiyatlarini tahlil qilish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	10 %	4 ta

5	Bolalar kiyimini tikish texnologiyasi	Bolalar kiyimlarini tikishda texnologik xarita hamda texnologik ketma-ketlikga rioya qilingan holda kiyimni tayyorlashni, bolalar kiyimlarida tavsiya qilinadigan yoqa, yeng, cho‘ntak, taqilmalar turlari va ularga ishlov berish usullarini, bolalar kiyimlari mayda detallariga ishlov berish usullari va ularni takomillashtirishni, bolalar kiyimlari mayda detallariga ishlov berish texnik shartlarga muvofiq bajarish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.	5 %	2 ta
6	Ayollar kiyimini konstruksiyalash va modellashtirish.	Odam gavdasi va qaddi-qomat tuzilishi tiplarini, ayollar gavdasining tuzilishini, gavadan o‘lchov olish, gavadani razmeri, bo‘yi va to‘lalik gruppasini aniqlash kiyim detallarini shakli, hajmi, nisbatlarini, ularning joylashuvini aniqlay olishni, kiyimini turli metodikalarda konstruksiya chizmalarini chizish; Zamonaviy moda yo‘nalishini tahlil qilishni, kiyim modellashtirish jarayonini bajarishni, kiyimdagi konstruktiv nuqsonlarni bartaraf qilishni, kiyim detallari andozasini tayyorlash bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.	10 %	4 ta
7	Ayollar kiyimini tikish texnologiyasi	Ayollar ko‘ylagini tikish uchun gazlama tanlashni, gazlamaning turli xossa va xususiyatlarini, mavsumbop gazlamalarni, mulyaj metodi asosida gazlamalar yordamida model yaratishni, ayollar kiyimi mayda bo‘laklari yeng, yoqa, cho‘ntaklarni, yoqa va yeng o‘mizlariga ishlov berish usullari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.	17.5 %	7 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko‘nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo‘llash	O‘zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta’limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	72.5 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog‘liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	7.5 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. S. Sh. Tashpulatov, M.K.Rasulova "Ayollar kiyimini konstruksiyalash va modellashtirish" Toshkent "Turon nashriyoti" 2022.

2. S. Sh. Tashpulatov, M.K.Rasulova "Ayollar kiyimini tikish texnologiyasi" Toshkent "Fidokor Yosh avlod" 2021.

3. N.S.Gaipova, D.A.Norbutayeva "Tikuv buyumlarini tikish texnologiyasi". Toshkent, "Ilm va fan" 2022

4. G.Q.Qulijonova, S.S.Musayev “Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi” Toshkent “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi” 2002.
5. A.Z. Xakimova “Tikuvchilik texnologiyasi va jihozlari” Toshkent “Osiyo nashriyoti” 2024
6. T.A.Ochilov, N.G.Abbasova “Gazlamashunoslik” Toshkent, “Cho‘lpon nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi” 2010
7. T.A.Ochilov, N.G.Abbasova “Gazlamashunoslik” Toshkent, “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti” 2003
8. M.K.Rasulova “Tikuv buyumlari ishlab chiqarish texnologiyasi” Toshkent, Nashr nashriyoti” 2014
9. R.M.Ismailova, N.A.Babadjanova “Erkaklar kiyimini konstruksiyalash va modellashtirish” Toshkent, “Fidokor Yosh avlod” 2022